

**TEXNOLOGIYA FANI VA YOSHLARIMIZDA KASBIY  
SHAKLLANISHNI YUKSALTIRISH HAQIDA**

*Jo'rayeva Baxtiniso Akbarovna*

*Termiz Davlat Pedagogika instituti*

*Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(texnologik ta'lif) yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya fani, texnologik ta'lif, kadrlar tayyorlash hamda yoshlarimizni kasbga yo'naltirish borasida so'z yuritilgan. Texnologiya fanining turli jihatlari va kasbiy shakllanishni yuksaltirish borasida mulohazalar qilingan.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, kasb, ta'lif, o'qitish, yoshlar, texnologik ta'lif.

**О НАУКЕ О ТЕХНОЛОГИЯХ И ПОВЫШЕНИИ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО УРОВНЯ НАШЕЙ МОЛОДЕЖИ**

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о технологической науке, технологическом образовании, обучении и профессиональной ориентации нашей молодежи. Были сделаны соображения относительно различных аспектов науки о технологиях и повышения профессионального образования.

**Ключевые слова:** технология, профессия, образование, обучение, молодежь, технологическое образование.

**ABOUT SCIENCE, TECHNOLOGY AND IMPROVING THE  
PROFESSIONAL LEVEL OF OUR YOUTH**

**Abstract:** This article tells about technological science, technological education, training and professional orientation of our youth. Considerations were made regarding various aspects of the science of technology and the improvement of vocational education.

**Keywords:** technology, profession, education, training, youth, technological education.

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning asosiy ustuvor yo'nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarini joriy etishni, fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta'lif muassasalari mustaqilligini

kengaytirish orqali ta’lim boshqaruvini demokratlashtirishni o’z ichiga oladi. O’qish, o’qitish – inson faoliyatining boshqa sohalari singari ijtimoiy foydali faoliyatdir. Iqtisodiy tuzumlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday va qanaqa mehnat qurollari bilan ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farq qiladi, degan g’oya o’qish-o’qitish faoliyatiga ham taalluqlidir.

Mehnat insonning hayotida muhim o`rin tutibgina qolmay, turmushni mehnatsiz, yaratuvchansiz tasavvur etib bo`lmaydi. Texnologiya darsliklaridagi har bir mavzudan olingan bilim, ko’nikma va malakalar o’quvchilarning kelajak hayotlarida muhim poydevor vazifasini o’taydi. Har bir o’g’il-qiz qaysi kasb egasi bo’lishidan qat’i nazar bir oilaning sohibi va sohibasi bo’ladilar. Demakki, kundalik turmushda uchraydigan yumushlarni mustaqil bajara olishlari ko’nikmalari kerak bo’ladi. Bu bilan oila buyudjetlariga ham anchagina foyda keltirishlari mumkin bo’ladi. Ayniqsa, qizlarimiz hayoti uchun juda muhim hisoblanadi. Bugungi kunda xotin-qizlarimiz ko’pchiligi ana shu mакtabda o’ргangan bilim va kasb-hunarlarli ortidan o’z turmush o’rtoqlariga yelkadosh bo’lib kelishmoqda.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o’ta muhim bosqichi bo’lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog’lik emas, u ma’lum yoshga kelib o’z o’zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko’nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo’lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o’quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko’nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo’llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta’minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to’siqlarni oldini olgan holda o’quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo’llash imkoniga ega bo’lamiz.

Texnologiya fani o’qituvchisi texnologik ta’lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma’lumotlarni muayyan mavzularga bog’lagan holda o’quvchilarga yetkazishi lozim. O’quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o’tkaziladigan mashg’ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to’garaklar alohida o’rin egallaydi. Bunday to’garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta’limi o’qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yosh rassomlar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi to’garaklarni kiritish mumkin. O’qituvchi bunday to’garaklarda o’quvchilarning loyiha chilik, texnik-ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega. Texnologiya o’qituvchisi o’z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisiga alohida o’rin ajratishi lozim. Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o’qituvchi mакtab rahbariyati va psixologi, o’quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar kollejlari mutasaddilari bilan

hamkorlikda har bir o'quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatlari orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining o'quvchilarni kasbga yo'llashga oid faoliyatini sind rahbarlari, fan o'qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, otanonalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma'muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'llashda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat fani o'qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e'tibor qaratishi lozim, chunki o'quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar dastlab shu yerda hosil bo'ladi. Ma'lumki, mehnat va kasb-hunarga bo'lgan muhabbat, e'tiqod, barcha o'quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Mehnat o'qituvchisining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o'quv fanlari o'qituvchilari va sind rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Bizning buyuk ajdodlarimizdan mir Alisher Navoiy bobomiz ham mehnatni ulug`lab o`z asarlarida bugungi kun yoshlariga ibrat bo`larli fikr va mulohazalar bildirib o`tkanlar. Alisher Navoiy yashagan davrdayoq ilm-fanga o`zgacha bir mehr bilan yondashadi. "Farhod va Shirin" asarida ilm-fan, faqat erkaklarga, yigitlarga emas, balki qizlarga ham nihoyatda munosib chiroy bo`lishini ta`kidlaydi. Bu jihatdan Shirin qizlarimizga o`rnak bo`la oladi, chunki u yon atrofidagi qizlarning ham kasb-hunar o`rganishiga da'vat etadi. Bundan ko`rinadiki, jamiyatimiz ko`rki bo`lmish go`zal qizlarimiz Shirindek aqli raso, xushtabiat, mehnatsevar bo`lish bilan birgalikda tikuvchilik, zardo`zlik, kashtachilik pazandachilik mahoratlarini mukammalashtirib boorish zarur. Buning uchun bugungi yoshlarmizda ijod, shijoat va sharoit yetarli deb o`yayman. Shu sababdan qizlarni o'qitishda texnologiya fani muhim hisoblanadi.

Qadimdan meros bo`lib qolgan quroqchilik, kashtachilik, do`ppido`zlik, zardo`zlik, gilamdo`zlik kabi xalq milliy hunarmandchiligiga e'tibor kuchaytirildi. Xalq hunarmandchiligin ishlarini maktabda davom ettirish, ya`ni pazandachilik, tikuvchilik, kashtachilik, quroqchilik yo`nalishida maktab qoshida kichik markazlar ochish, bunda o`quvchi qizlarni qiziqishlarini inobatga olgan holda markazlarga yo`naltirish va markazlarni texnik jihozlar bilan ta'minlash zarur. Jumladan, quroqchilik sir-asrorlarini amaliyotda o`rgatish uchun texnik vositalar orqali bilim berish qulayroq deb bilaman.

Quroq – bitta buyumda rangi va fakturasi turlicha bo`lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirishdir. Bu usul bilan yostiq jiddlari, ko`rpa, divan va stollar uchun g`iloflar, gilamchalar, shuningdek kiyimlar uchun bezak va to`ldiruvchi detallar tayyorlash mumkun.

Zargarlik – bezak san`ati turi, amaliy san`atning zar tilla va kumush kumush suvi yuritilgan ip, nozik sim, ipak bilan kashta tikib bezak yaratadigan sohasi. To`rtburchak chambarakka o`rnatilgan baxmal shoyi movut, charm va boshqa matolarga zardo`zi usulida kashta (gul, naqsh tasvir) tikiladi. Qadimda ham hozir ham zardo`zlik bilan shug`ullanadigan hunarmandlarni “zardo`z” deb atashadi.

Do`ppido`zlik – do`ppi tikish kasbi badiiy hunarmandchilikning keng tarqalgan sohasi. Do`ppi baxmal sidirg`a shoyi satindan bichilib ipak, zar iplar bilan kashta tikiladi.

Kashtado`zlik - kashta tikish kasbi amaliy san`atning qadimiy sohalaridan biri bo`lib kelgan. Kashtachilik O`zbekiston amaliy bezak san`ati turlari orasida o`zining qadimiy an`analariga ega bo`lgan ayollar shug`ullanib kelgan san`at turi hissoblanadi. O`zbek kashtalarining noyobligi va go`zalligi uning bezak–naqshlari va texnik usullarining ko`pligi va qadimliligi ushbu san`atning boy an`analaridan dalolat beradi.

Prezidentimizning “Professional ta`lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo`sishimcha chora–tadbirlar to`g`risida”gi farmoniga binoan umumiyo o`rta ta`lim muassasalarining 10-11-sinflari o`quvchilariga kasbiy ta`lim berish, o`quv ishlab chiqarish majmualarini tashkil qilish, yoshlarimizni kasbga o`rgatish eng ustuvor maqsadlardan biri bo`ldi. Maktabdanoq kasbga o`qitish tizimi joriy etilishlishi belgilandi.

Yoshlar muammolarini samarali hal etish maqsadida joriy yil 30-iyunda “O`zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to`g`irisida” Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq, yoshlar siyosatini yuritishda davlat idoralari oldiga masala qo`ya oladigan zarur vakolat va moliyaviy resurslarga ega bo`lgan Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

Hozirgi davrda uzlusiz ta`lim–tarbiya tizimida, mehnat va kasb hunar pedagogikasida milliy, ma`naviy madaniy meroslaridan qadriyatlaridan, tarixiyligi barcha izlanishlarning asosiy yo`nalishlaridan hissoblanadi. Fikrimni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning quyidagi fikrlari bilan davom ettirmoqchiman. “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma`naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqqosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkonyatlarini safarbar etamiz.” Buning uchun 7-sinfdan boshlab o`quvchilarning kasblar kesimida qiziqishini aniqlanadi. 8-9-sinf o`quvchilari dasturchi va dizayner kabi istiqbolli kasblar uchun poydevor bo`ladigan bilim va ko`nikmalarni egallaydi. 10-sinfdan robototexnika, dasturlash kabi talab yuqori kasblarga o`rgatish yo`lga qo`yiladi.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy muhim turlaridan hissoblanadi va ta`sviriylar hamda amaliy san`atining ko`pdan-ko`p sohalari

bilan uyg`unlashib ketadi. Yoshlarimizning xalq hunarmandchilik turlarini ilmiy asosda va amaliy jihatdan puxta o`zlashtirgandagina bu muhim vazifani muvaffaqiyatli uddalay oladilar.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlab o'tishishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazufalardan biri ekanligini yana bir bor ta`kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, butun insoniyatga foyda keltirishi darhaqiqat.

**Foydalanadigan adabiyotlar:**

1. "Alisher Navoiy ijodida kasb –hunar madhi." Toshkent 2001 .39- bet.
2. Xalq hunarmandchiliga oid adabiyotlar
3. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003.
4. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005.